

**NORMUROD NORQOBILOV QISSALARIDA NABOTOT
OLAMI TALQINI.**

Toshpo'latov Akramjon Haydarovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, PhD

E-mail: @AkramHaydarovich, +998 90 195 20 71.

Usmonova Fayzixon Odiljon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, talaba

E-mail: usmonovafayzixon@gmail.com,

+998 77 070 47 88

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining atoqli yozuvchisi Normurod Norqobilov qissalarida nabotot olami tasviri va uning badiiy talqini tahlil etiladi. Yozuvchi qissalarida inson va tabiat hamda hayvonot olamining dialektik aloqadorligi, inson va tabiat uyg'unligi tasvirlangan. Adib asarlarida tabiat tasviri nafaqat voqealar rivojini bezab turuvchi fon, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochib beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada yozuvchining qissalaridagi o'simliklar olami tasvirining funksional vazifalari, ularning obraz yaratishdagi o'rni va ramziy ma'nosi tadqiq etiladi. Shuningdek, tabiat unsurlarining inson hayoti va taqdiriga bog'lanishi, yozuvchi uslubidagi o'ziga xos xususiyatlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Adabiyot, qissa, peysaj, tasvir, inson, voqea, xarakter, nabotot, hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, vafodorlik, tabiat uyg'unligi

KIRISH

Normurod Norqobilov keyingi yillar o'zbek nasri rivojiga barakali hissa qo'shgan iste'dodli yozuvchilardan biri. "Tabiatni qadrlaydigan, undan hikmat topa bilgan, borliq bilan tillasha oladigan, sirlasha bilgan, oddiylikdan mo'jiza topgan ijodkor." Adib Normurod Norqobilov ijodini yaqindan bilgan kitobxon unga shunday baho berishi tabiiy. Yana shuni ta'kidlash lozimki, Normurod Norqobilov tabiatga maftun bo'lgan, o'zini uning ajralmas qismi deb hisoblaydigan ijodkorlardan.

Ma'lumki, inson va tabiat, inson va borliq mavzusi adabiyotda ustuvor o'rin egallaydi. Jahon adabiyotidagi bu mavzu azaldan mavjud bo'lib, keyingi yillarda kuchayganini kuzatish mumkin. Adabiyotshunoslar Normurod Norqobilovning onatbiatga bag'ishlangan asarlarini jahon adabiyotining nomdor vakillari ijodi bilan bemalol bellasha olishini ta'kidlaydilar.

Yozuvchi tabiat muhitida turib, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik muammolarni ayta olishi, dolzarb g'oyalarni o'rta tashlashi, ijodi teran falsafaga yo'g'rilgani bilan e'tiborga molik. Tabiat bilan inson o'rtasidagi muammolar aloqibat insonning o'ziga

misli ko'rilgan fojialar olib kelishi adib qissalarida tabiiy, hayotiy ham oddiy, jaydari tarzda ifoda etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yozuvchining Ovul oralagan bo'ri qissasida keltirilgan peyzaj tasviri asar qahramoni Cho'ngkalla xarakteri bilan uyg'un ifodalangan. Yozuvchi insondagi his-tuyg'u va odamiylik fazilatlarini yo'qolishini qish chillasidagi qorsiz dasht timsolida jonli gavdalantiradi. Inson gohida his-tuyg'ulariga asir bo'ladi, boshqalar qalb tuyg'ularini his qila olmaydigan, bir ozgina yutuqdan havolanib, atrofida kechayotgan hodisalardan bexabar, befarq, loqayd odamga aylanadi. Buni qarangki, yozuvchi asarida xuddi shu haqida quyidagi fikrlarni yozadi: Salom mergan qishloqdoshlarining hadyalarini xushnud qabul qilishda davom etarkan, shu tobda o'ziga ajal timsoli ko'z tikib turganini xayoliga keltirmasdi. U maqtovlardan mast, hadyalardan baxtiyor edi. Dashtdagi tulki-yu quyonlarga qiron keltiruvchi bu kimsa bo'rini ilk bor qo'lga tushurishi edi. Eng muhimi bu insoniy fojialar bo'rilar timsolida nafaqat insondagi ijobiy fazilatlar, balki salbiy jihatlar ham juda jonli gavdalantiriladi. Teranroq nazar tashlansa, qissa muallif hozirgi kun uchun dolzarb bo'lgan ekologik tarbiyani ham o'quvchi ongiga qahramoni Cho'ngkalla orqali, juda muhim ramziy obraz vositasida singdiradi. Cho'ngkallaning jufti Oqyol ovchilar qopqoniga tushib, Salom merganning qurboniga aylandi. Vafodorlik timsoli sifatida berilgan bo'ri tabiatida juda go'zal his-tuyg'ular, xuddi, inson qalbidagi ruhiy holatlarga monand ko'rsatiladi. Qissadagi voqealar inson va tabiat, hayvonot olami va insonlar o'rtasidagi muammolar asosiga qurilgan.

Agarda insonda tuyg'u bo'lmasa, quyosh haroratsiz, tabiat rangsiz, tiriklik va xayol ruhsizlik kasb etadi. Biz tahlil qilishga urinayotgan mashhur "Ovul oralagan bo'ri" qissasi zotan insonlar xususida bo'lmasa, tabiatning yaratig'i bo'lgan, o'z dunyosining mushkulotlari bilan kurashib dasht va o'rmonlarda yashovchi bo'ri haqida. Asarda Salom mergan ziddiyatli obraz. Bo'ri obrazi konseptual obraz darajasiga ko'tarilmagani kabi Salom mergan obrazi ham badiiy talqin etilmagan. Bundan kelib chiqadigan ma'no asarda yozuvchi g'oyasi konseptual darajaga ko'tarilmagan. Asarda Salom mergan bir qator qat'iyatsiz, irodasi bo'sh, tez havolanuvchi, o'zgalar fikriga tez og'ishib ketuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. U tabiatdan fe'li yumshoq inson sifatida keltirilgan bo'lsa-da, boylikka o'chlik hissi uning bu hislatlarini ko'mib tashlaydi. Manmanligi, tajangligi uning muvoffaqiyatiga, erishish yo'lidagi eng katta muammoli to'siq ekanligi asarda yaqqol ko'rsatiladi. Bizga ma'lumki, hayot so'qmoqlarini bosib o'tgan inson xarakterini o'zgartiradi.

Adib qissalarida inson tabiatidagi murakkablik bilan tabiat hodisalarini bir butunlikda ko'rsatadi hamda insonning ko'ngil mayli bilan ma'naviy olami, odamiylik va insoniy qismati, taqdiri yuzma-yuz kelishi tasvirlangan. Xususan, adibning Qoyalar ham yig'laydi qissasida qoya, buloq, tosh, archa, ayiq, it, inson aro uzviy, tabiiy

bog'liqlikda beriladi. Qissada Ernazar polvon borlig'i, o'y-fikrlari bilan tabiat odami. U jamiyat tartibotini biladi, fan-texnika taraqqiyotini anglaydi, zamon va odamlar o'zgarib borayotganini ko'radi. Lekin, baribir, tabiatning azaliy tartiblari asosida yashashni yoqtiradi. Ernazar polvon katta oilaning qoyaday mustahkam tayanchi, qishloqdoshlarining etakchisi, G'aybulla merganday aqlli odamning do'sti. U zaifa-yu ojizalarni e'zozlaydi, lekin ular bilan hisoblashishni xayoliga ham keltirmaydi. Uning qalb tuzuklari bor, ularga qat'iy rioya qiladi. Er yigitning go'zalligi qalbida. Ernazar polvonning ayoli o'g'illar sonini yana bittaga orttirganida, uning yuragidan quyosh chiqqanday bo'ldi. Chaqaloqni ko'rdi-yu uning kapalagi uchib ketdi. Yo'q, bola ta'viya, nogiron emasdi. Aksincha, qosh-ko'zlari popukday, kipriklari to'sday qopqora, betlari, dahani kelishgan. Ota ko'nglidan zimda xayol kechdi: Qizbet. Shu beozorgina fikr ota va o'g'il ziddiyatiga, oilaviy fojiaga sabab bo'ldi. Xushbichim chaqaloqqa O'sar deb ism qo'yishadi. U aqlli, tadbirkor yigitcha bo'ldi, tuman markazida vaqtini o'tkazdi. Aka-ukalariday kurash tushmaydi. Otasi har qancha gapirmasin, davraga kirmaydi. Tumanda allaqanday sport bilan shug'ullanadi. Mototsiklda g'ir etib qishloqqa keladi, g'ir etib shaharga ketadi. O'sar beboshlik ko'chasiga kirib, nasl-nasabining tayini yo'q ayol bilan tanishadi. Harom-xarishni farqlamay qo'yadi. Ota erinmasdan markazga borib, o'sha ayolni ko'rib qaytdi. Ernazar polvonning dardi-dunyosi zim-ziyo bo'ldi. "Ichki kechinmalar, tuyg'ular, hislar in' ikosi orqali inson qiyofasining to'la namoyon bo'lishi badiiylikning muhim mezoni. Bu hol, o'z navbatida, istiqloq adabiyotining o'ziga xosligini belgilaydi.

Normurod Norqobilovning "Changalzor iti" qissasida nabotot olami tasviri inson, hayvon va tabiat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Yozuvchi ushbu asarida mehr bilan har qanday yovvoyi jonzotni sadoqatli do'stga aylantirish mumkinligi "bola" va "qoravoy" timsolida tasvirlagan. Qissadagi bosh qahramon qoravoyning tug'ilishi, olamni anglay boshlashi, ov qilishni o'rganishi, boshqa hayvonlar bilan tanishuvi, insonga nisbatan turli munosabatida obrazning spetsifik jihatlari yaxshiroq ochilganini ko'rishimiz mumkin. Qissada Qoravoyning tabiat bilan birgalikda hayot kechirishi, ya'ni uning changalzorda tug'ilishi, o'sha yerdagi hayoti badiiy tasvir orqali yoritib berilgan.

□ Qoravoyning ko'z ochib, ilk ko'rgan novdalari bir-biriga chirmashgan devorday qalin butalar bo'ldi. Butalar tagidan o'tgan yilgi xas-xashaklar mo'ralab turar, muzdek namxush havoda shuvoq isiga qorishiq zax hidi anqir, o'lik oftob nuriga ko'milgan changalzor o'ta adoqsizdek taassurot uyg'otardi. Aslida ham changalzor kichkina emas, otda tevaraklaganda, yarim soatlik maydonda yastanib yotardi. Qoravoy ushbu changalzorning qoq o'rtasidagi sayhonlikning birida dunyoga kelgandi. Mo'jaz bu maydon dastlab unga keng olam tuyilgandi" . [1-234]

Mazkur parcha qissa ekspozitsiyasida keltirilgan bo'lib, yozuvchi bosh qahramon Qoravoy obrazining dunyoga kelishi va olamni anglashi bilan bog'liq voqeani bayon

qiladi. Tasviriy-rivoya usulidagi bayonda roviy-muallif har qanday obrazning tug'ilishi bilan bog'liq oddiylikdan murakkablikka yo'nalgan dialektik fikrlash tarzini tanlagan. Bunda Qoravoy tug'ilgan makon va uning badiiy tasviri beriladi. E'tibor qilinsa, ilk ko'rgan qalin novdalik butalar Qoravoyning tashqi olamdan asrovchi vosita sifatida ham olinishi mumkin. Yana shuni aytish mumkinki, qalin butalar bu yerda qoravoyning hayotidagi to'siqlar va qiyinchiliklarni ramziy ma'noda ifodalaydi. Buta tasviridan keyin sekin-astalik bilan uning ostidagi xas-hashak tasviri ham rivoya oqimiga singdiriladi: "Butalar tagidan o'tgan yilgi xas-hashaklar mo'ralab turar". Yozuvchi badiiy makon tasvirini berib, keyin aniq maqsadni tasvirlaydi. Lekin bu vaqt qisqa, ya'ni bahor kelish arafasi ekanligini taxmin qilish mumkin. Chunki o'tgan yilgi o'tlar jonlantirilib, Qoravoyga qarab mo'ralangadek berilishi ortidan obrazning rivoya markaziga chiqishi ham seziladi. Qoravoy tug'ilgan joy changalzor o'rtasidagi sayhonlik ekanligi esa bu joyni tabiiy qo'rg'onligini bildiradi. Changalzorning kengligi va yovvoyi tabiat ekanligi esa itning ham shu tabiat bilan uyg'unligini anglatadi.

Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov qayd qilganidek, "Normurod Norqobilov – o'ndan ortiq qissa, qanchadan-qancha hikoyalar muallifi. Uning asarlarida hayvonot va insonlarni murakkab munosabatlar tasvirlanadi. Yozuvchi goh nabotot (yashil tabiat), goho jamodot (tog'-u toshlar, qir-adirlar) olamiga nazar tashlaydi. Uning "Qoyalar ham yig'laydi" qissasida inson va tosh, tog' va odam bog'liqligi mahorat bilan ochilgan. Hayvonot olamini yashil dunyo – nabototdan ajratish mumkin emas. □Paxmoq" qissasidagi ayiq o'zini do'lana, zirak, olma kabi mevalarga uradi. □Tog' odami" qissasining qahramoni Jondosh jarlikka qulaydi. Qoyada o'sgan daraxtning chayir shoxi Jondoshni "tutib" qoladi. Yozuvchi hayvonot, nabotot, jamodot aro aloqalarning o'ta tabiiy tasviriga erisha oladi. Bu, aslida, tabiiy hol hayvonot, nabotot, jamodot bir ota-ona farzandi. Ular odamday tug'ilganlar" . [2-3]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Normurod Norqobilovning "Ovul oralagan bo'ri", "Qoyalar ham yig'laydi", "Changalzor iti", "Paxmoq", "Tog' odami" kabi qissalarida nabotot olami nafaqat tabiatning go'zalligi, balki inson ruhiyatini aks ettirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Yozuvchi o'simlik va hayvonlarni ramziy ma'noda ishlatib, ularni insonlar bilan bog'lab ko'rsatadi. Tabiat tasvirlarining ramziy ma'nolarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar, Normurod Norqobilovning ijodini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Норқобилов Н. Бекатдаги оқ уйча. Ҳикоялар ва қиссалар. – Тошкент: Шарқ. – Б. 234-297.

2. Норқобилов Н. Бўрон қўпган кун. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2007. –Б. 3-6.
3. Ashurov B.Sh. Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” qissasidagi Qoravoy obrazining dinamik talqini. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.(E)ISSN: 2181-1784. 4(02), Feb., 2024.www.oriens.uz